

ZAMONAVIY TIL NAZARIYASIDA «DISKURS» ATAMASI VA UNGA ILMIY  
YONDASHUVLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7671403>



ELSEVIER



Received: 22-02-2023  
Accepted: 22-02-2023  
Published: 22-02-2023

**Abdurahmanova N.N.**

Andijon davlat universiteti Fakultetlararo chet tillar aniq va tabiiy fanlar  
kafedrasida katta o'qituvchisi +998 90 540 91 07  
E-mail: n.n.abdurahmonova76@gmail.com



**Abstract:** Maqola diskurs tushunchasi va diskursning o'ziga hosligi, olimlarning "diskurs" atamasining funksional xususiyatlarini qanday tahlil qilganliklari, lingvistik qarashlarini taqqoslash doirasida nutq tahlili va uning turlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bundan tashqari, u og'zaki va yozma nutqlarning o'xshashliklari va o'xshashliklarini chuqur tadqiqotlar natijasida ta'kidlangan haqiqiy materiallar orqali ko'rib chiqadi.

**Keywords:** Diskurs, fenomen, nutq, ibratli nutq, pragmatik, nutqiy muloqot, metodologiya, tilning shakllanishi, lingvistik vositalar, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita murojaatlar, ko'rsatmalar matnlari.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-02-2023  
Accepted: 22-02-2023  
Published: 22-02-2023

**Abstract:** Статья посвящена изучению речевого анализа и его видов в рамках концепции дискурса и своеобразия дискурса, тому, как ученые проанализировали функциональные характеристики термина «дискурс», сопоставив свои лингвистические взгляды. Кроме того, в нем рассматриваются сходства и различия между устными и письменными дискурсами на основе аутентичных материалов, выявленных в результате углубленного исследования

**Keywords:** дискурс, явление, речь, образцовая речь, прагматика, речевое общение, методология, языковое образование, языковые средства, прямые и косвенные ссылки, учебные тексты.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-02-2023  
Accepted: 22-02-2023  
Published: 22-02-2023

**Abstract:** The article is devoted to the study of speech analysis and its types within the framework of the concept of discourse and the originality of discourse, to how scientists analyzed the functional characteristics of the term "discourse", comparing their linguistic views. In addition, it examines the similarities and differences between oral and written discourses based on authentic materials identified through in-depth research.

**Keywords:** discourse, phenomenon, speech, pragmatics, speech communication, methodology, language education, language means, direct and indirect references, educational texts.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

## Kirish

Diskurs (qadimgi lotin tili. discursus – mulohaza, bahs; asli – aylanib yurish, shov-shuv, manevr) – polisemantik atama bo'lib, umumiy ma'noda nutq, lisoniy jarayonlar, ularning olam lisoniy manzarasi bilan munosabatini bildiradi .

Diskurs – bu ma'lum bir ijtimoiy-madaniy an'anada ratsionallikning hukmron turi bilan tartibga solinadigan inson ongi mazmunini ob'ektivlashtirishning og'zaki ifodalangan shakli. Hozirgi vaqtda diskurs falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik,

madaniyatshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlarda faol qo'llaniladigan polisemantik tushunchadir .

Diskurs tushunchasi nutqning ma'lum sohasi hamda maxsus leksikaga ega bo'lgan nutqiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq. Diskursning o'ziga xosligi sintaksis, ma'lum semantik xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Diskurs ma'lum kommunikativ harakat va uning pragmatikasi bilan yuzaga keladi, unda hal qiluvchi jihatni tilga xos bo'lgan qurilishlardan iborat o'ziga xos lisoniy muhit tashkil etadi. Shu sababli diskurs atamasining o'zi ham ma'lum izohlovchini talab etadi. Masalan, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, falsafiy diskurs va h. Shu nuqtai nazarga tayansak, diskurs bu "til ichidagi til"dir: uning kommunikativ akti matni nutqda o'ziga xos leksikasi, semantikasi, pragmatika va sintaksisi bo'ladi .

Olimlar "diskurs" atamasini tilning funksional xususiyatlarini (mas., uslubiyat, pragmatika) bilvosita yoki bevosita o'rganuvchi fanlar bilan yonma-yon tilga olishadi. Lingvistik nuqtai nazardan diskurs nutqiy faoliyatning keng tarqalgan lisoniy modellar bilan birga shakllanadi, u so'zlovchining turli ijtimoiy madaniy kontekstlarda dunyoqarashi, olam lisoniy manzarasi, mafkurasi, qarash va yondashuvlarini aks ettiruvchi oyna sanaladi. Ingliz tilshunosligida diskurs atamasi muloqotda gap mazmunidan kengroq narsani ifodalovchi, mazmuniga ko'ra so'zlovchi "men"i qo'llanishi bilan bog'liq, tashkiliy shakliga ko'ra kommunikantlarning o'zaro interfaol munosabatini ifodalovchi nutq tushuniladi. (Stubbs, 1983). Bu yondashuv diskursni struktur va formal lingvistika pozitsiyasidan turib baholaydi.

Diskurs atamasi ko'plab monografiya, darslik, qo'llanma hamda maqolalarda izohlangan. Xususan, Ye.D.Isayeva "Понятие дискурса в современной лингвистике" mavzusidagi maqolasida ushbu tushunchaning bir necha yillardan buyon dolzarb masala sifatida qaralayotganini ta'kidlaydi.

Uning ta'kidlashicha, diskurs lingvistik kategoriya sifatida murakkab va ko'pqirrali tadqiqot obyekti bo'la oladi. Uning o'ziga xosligi bir tomondan, muloqot va nutq, lisoniy axloq o'rtasida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnda aks etishi bilan oraliqlik xarakteriga egaligi bilan izohlanadi. Tabiatiga ko'ra, diskurs nazariyasi turli ijtimoiy gumanitar fanlarni birlashtiradi, uning yordamida zamonaviy muloqotda paydo bo'ladigan qator muammolar yechiladi.

Tadqiqotlarda diskursiv yondashuv nutqiy muloqot bilan inson, madaniyat, jamiyat orasidagi aloqani o'rganish imkonini berishi, shuningdek, kommunikativ jarayonlar haqidagi tadqiqotlarning yangi imkoniyatlarini ochishi ta'kidlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, "diskurs" tushunchasi fanlararo xarakterga ega: xorijiy tillarni o'rganish metodikasining nazariy asoslari sanalgan lingvistik, psixologik, madaniyatshunoslik va pedagogik fanlarda

o'rganiladi va tahlil qilinadi. Demak, diskurs – ancha murakkab va ko'p qirrali fenomen, shu sababli bu tushunchani bitta ta'rif bilan izohlab bo'lmaydi.

Ye.Isayevaning aytishicha, lingvistik nuqtai nazaridan diskurs – yozma nutqdan farq qiluvchi jonli muloqot jarayoni. Shu sababli u spontan, tugallangan, mavzuga bevosita bog'liq, tinglovchi uchun tushunarli bo'ladi. Struktur xususiyatlari bilan birga diskurs janriy o'ziga xoslikka ham ega. Shu bilan birga uning jiddiylik/nojiddiylik, rituellik va vaziyatdan chiqish, munozara, muloqot distansiyasini oshirish va qisqartirish kabi belgilari ham mavjud.

Diskurs tushunchasining lingvistik fenomen sifatida serqirraligi turli yondashuvlardan kelib chiqadi. Diskursga formal, funksional, situativ, kognitiv yondashuvlar mavjud. Formal yondashuv diskursni ikki yoki undan ko'proq gap/jumlaning ma'noviy bog'liqligi sifatida qaraydi. Bunday interpretatsiyada diskurs iboradan kattaroq murakkab sintaktik butunlik bo'lgan birlik sifatida tushuniladi.

Funksional diskurs tildan istalgan paytda foydalanish holati bo'lib, tilning umumiy tahlili deb qaraladi. Situativ diskurs ijtimoiy, psixologik va madaniy ahamiyatli sharoit va vaziyat konteksti bilan bog'liq. Ushbu yondashuvga formal va funksional diskurs xususiyatlarini qamrab olgan diskurs sifatida ham qaraladi. Kognitiv yondashuvda diskurs bilimni ifodalashda yangi muloqot shaklini hosil qiluvchi kognitiv fenomen sifatida qaraladi. Shunday qilib, tilshunoslar diskursni turli aspektda o'rganishadi, bu esa diskurs nazariyasini to'laqonli rivojlantirish, mukammallashtirishga yo'l ochadi.

“Diskurs” so'zi fransuzcha “nutqiy akt va harakat sifatida”, “nutq voqea sifatida” degan ma'nolarni bildiradi.

Diskurs tushunchasini tabiiy fenomen sifatida o'rganar ekanmiz, uning tasniflanishi haqida savol tug'ilishi tabiiy. Bunda dastlabki farqlash yozma va og'zaki diskursga tegishli bo'ladi. Bunday tasnifga axborotni uzatish kanali asos bo'ladi: og'zaki diskursda kanal akustik, yozma diskursda vizuallik. Odatda, tilning og'zaki va yozma qo'llanishi matn va diskursga tenglashtiriladi. Ammo, Ye.Isayevaning fikricha, bunday qarash o'zini oqlamaydi. Asrlar davomida yozma nutq (og'zaki nutqqa nisbatan) yuqori imkoniyatga ega deb qaralgan. To'g'ri, og'zaki diskurs til mavjudligining boshlang'ich shakli, yozma diskurs og'zaki nutqdan kelib chiqqan. Ko'plab tillar hozir ham yozuvga ega emas, ular faqat og'zaki shaklda mavjud. XIX asr oxirida tilshunoslar yozma nutqning og'zaki nutqning shunchaki transkripsiyasi emasligini isbotlashdi. XIX asrgacha tilshunoslar qog'ozda aks ettirilgan og'zaki tilni o'rganyapmiz degan fikrda bo'lganlar, aslida esa ular tilning faqatgina yozma shaklini tahlil qilishgan. 1970-yillarga kelib og'zaki va yozma diskurs orasidagi aniq farq, ya'ni til mavjud bo'lishining alternativ ko'rinishi ekanligi aniq qiyoslana boshlandi.

Yozma diskursda bo'lgani kabi elektron diskursda ham axborotni grafik usulda aks ettirish usulidan foydalaniladi. Og'zaki diskurs esa formal bo'lmagan va oniylik xususiyatiga egaligi bilan farq qiladi. Zamonaviy elektron diskursga misol sifatida Chatlarni misol keltirish mumkin. Bunda so'zlovchi komputer tarmoqlari orqali muloqotga kirishadi, ekranning yarmiga muloqotning birinchi ishtirokchisi, ikkinchi yarmiga ikkinchi ishtirokchi o'z fikrini yozadi. Muloqot ishtirokchisi suhbatdoshining fikrini ekranda o'qiydi. Elektron muloqotning o'ziga xosliklarini tadqiq etish zamonaviy diskursning dolzarb masalasi sanaladi. Og'zaki va yozma diskurs kabi asosiy diskurslar sirasida yana bir ko'rinishni farqlash kerak, bu tafakkur diskursidir.

Inson akustik va grafik vositalarsiz ham nutqiy muloqotni amalga oshirishi mumkin. Bu holat ham kommunikativ shaklda davom etadi: faqat so'zlovchi ham, tinglovchi ham bir shaxsning o'zi bo'ladi. Tafakkur diskursi og'zaki va yozma diskursga nisbatan kam o'rganilgan. Diskursning bu turi yoki an'anaviy atama bilan aytganda, ichki nutq borasidagi tadqiqotlarni L.S.Vigotskiy amalga oshirgan.

Diskurs turlari orasidagi farq ko'pincha janrlarga (novella, esse, qissa, roman va b.) asoslangan, chunki ushbu atama dastlab adabiyotshunoslikda qo'llangan. Hozirgi kunda janr atamasi diskursda nisbatan keng ma'no kasb etadi. Diskursda janrlar tasnifi mavjud bo'lmasa ham, maishiy dialog (suhbat), hikoya (narrotiv), biror bir vositani ishlatish bo'yicha yo'riqnoma, intervyu, reportaj, ma'ruza, siyosiy chiqishlar, da'vat, she'riyat va b. ajratiladi. Bu janrlar ma'lum muqim (zotiy) xarakterga ega.

Masalan, hikoyada an'anaviy kompozitsiya bo'lishi, ma'lum lisoniy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Hozirgacha janrlarning lisoniy xususiyati atroflicha o'rganilmagan. Amerikalik tilshunos Dj.Bayberning fikriga ko'ra, ma'lum bir janrga xos lisoniy xarakteristikani aniqlash oson emas. Bayber janrlarning lisoniy belgilardan holi madaniy konsept sifatida o'rganish, qo'shimcha ravishda diskursning tiplarini farqlashni taklif qiladi.

Ye.Isayevaning fikriga ko'ra, diskursning janriy xususiyatlari qator belgilar majmui deb qaralishi mumkin:

1. Informativ, imperativ, etiketga oid va sub'ektiv baho kabi to'rtta nutqiy janrni o'zaro zidlantiruvchi kommunikativ maqsad.
2. Muallif obrazi.
3. Adresat obrazi.
4. O'tgan muloqot qaratilgan voqea, unga xos javob, rad etish, qabul qilish.
5. Muloqot epizodi sanalgan kelajak voqeasi: taklif, va'da, bashorat.
6. Voqelik mazmuni.
7. Nutqiy janrning lisoniy xususiyati.

Xulosa

Shunday qilib, diskurs kommunikativ lingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri sanaladi. Mazkur atama nafaqat nutqning urg'usi, balki boshqa bir qancha ilmiy interpretatsiyalarni ham qamrab oladi. Diskurs atamasi tilshunoslikka oid adabiyotlarda keng ma'noda matn, nutq, dialog kabi ma'nolarda qo'llanadi.

Lingvistik ensiklopedik lug'atda diskurs atamasi ensiklopedik tushunchaga xos tarzda quyidagicha ta'riflangan:

DISKURS - ekstralingvistik - pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan hosil qilingan voqeyiy aspektidagi bog'liq matn. Unda nutq uni hosil qiluvchilarning kognitiv jarayoni bilan bog'liq ravishda maqsadli ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Diskurs bu "voqealarga to'la hayot". Shu sababli ushbu atama, "matn" atamasidan farqli o'laroq eski matnlarga nisbatan ishlatilmaydi. Chunki bunday matnlar jonli hayot bilan bevosita bog'lana olmaydi. Diskurs nutqqa paralingvistik (mimika, jest) xususiyatlarni ham olib kiradi. Ushbu belgilar nutqqa uning asosiy vazifalaridan biri - suhbatdoshga his-tuyg'uni (ritmik, referent, semantik, hissiy-bo'yoqdor,) yetkazishga, illokutiv kuch (undov jestlari, ishontirish) qo'shishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arutyunova N.D. Discourse / Linguistic Encyclopedic Dictionary. M.: Soviet Encyclopedia, 1990. P. 136-137.
2. Brown, G. and G. Yule. Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press (Cambridge Textbooks in Linguistics), 1983.
3. Burns, A., Joyce, H., & Gollin, S. I see what you mean: Using spoken discourse in the classroom. Sydney: National Center for English Language Teaching and Research, Macquaire University. 1996.
4. Cook, G. Discourse. Oxford: Oxford University Press, 1989.
5. Coulthard, M. Advances in Spoken Discourse Analysis. London: Routledge, 1992. - 273 p.
6. Исаева Е.Д. Понятие дискурса в современной лингвистике // <http://vii.sfu-kras.ru/info/public/vii/book/ponyatie-diskursa-v-sovremennoy-lingvistike-2009>
7. Лингвистический энциклопедический словарь. 2012 // <https://slovar.cc/rus/lingvist/1465730.html>